



METONYMY IN SCIENTIFIC TV SERIES AND THEIR TRANSLATION STRATEGIES

Norbekova Farangiza

PhD Student of Tashkent State
Uzbek Language and Literature University
farangiza_norbekova@mail.ru
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15316029>

ARTICLE INFO

Received: 24th April 2025

Accepted: 29th April 2025

Online: 30th April 2025

KEYWORDS

Translation, metonymy, scientific TV shows, linguistic analysis, media studies, communication, cultural representation, language translation, metaphor, audience perception, narrative techniques, genre analysis, interpretation, subtitling, dubbing, context, semantics, visual language, storytelling, adaptation.

ABSTRACT

This article explores the complex process of translating metonymy in science television programs, highlighting the challenges and strategies used by translators. It examines how metonymic expressions, which often rely on cultural and contextual nuances, can affect listeners' understanding of scientific concepts. Through a detailed analysis of various case studies, the article aims to highlight the importance of preserving the original intent and clarity of scientific communication and adapting it for different audiences. The results suggest that effective translation not only enhances audience engagement but also contributes to a deeper appreciation of scientific discourse in popular media.

ILMIY-OMMABOP KO'RSATUVLAR MATNIDA METONIMIYA QO'LLANILISHI VA TARJIMA TAHLILI

Norbekova Farangiza

ToshDO'TAU tayanch doktoranti,
farangiza_norbekova@mail.ru
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15316029>

ARTICLE INFO

Received: 24th April 2025

Accepted: 29th April 2025

Online: 30th April 2025

KEYWORDS

Tarjima, metonimiya, ilmiy teleko'rsatuvlar, lingvistik tahlil, media tadqiqotlari, aloqa, madaniy tasvir, til tarjimasi, metafora, auditoriyani idrok etish, hikoya qilish texnikasi, janr tahlili, izohlash,

ABSTRACT

Ushbu maqola ilmiy teleko'rsatuvlarda metonimiyani tarjima qilishning murakkab jarayonini o'rganadi, tarjimonlar tomonidan qo'llaniladigan muammolar va strategiyalarni yoritadi. U ko'pincha madaniy va kontekstual nuanslarga tayanadigan metonimik iboralar tinglovchilarning ilmiy tushunchalarni tushunishiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini o'rganadi. Turli amaliy tadqiqotlarni batafsil tahlil qilish orqali maqola ilmiy aloqaning asl maqsadi va ravshanligini saqlab qolish va uni turli auditoriyalar uchun moslashtirish muhimligini yoritishga qaratilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, samarali tarjima nafaqat



subtitrlash, dublyaj, tomoshabinlarning qiziqishini kuchaytiradi, balki ommabop kontekst, semantika, vizual ommaviy axborot vositalarida ilmiy nutqni chuqurroq til, hikoya qilish, baholashga yordam beradi. moslashtirish.

Hujjatli filmlar sohasida bir soʻz yoki iboraning oʻrniga oʻzi bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan boshqa soʻz yoki iboraning oʻrnini bosuvchi nutq shakli boʻlgan metonimiya muhim rol oʻynaydi. Ushbu adabiy qurilma rejissyorlarga murakkab gʻoyalar va his-tuygʻularni ixcham tarzda etkazish imkonini beradi, hikoyani kuchaytiradi va tomoshabinni yanada chuqurroq jalb qiladi. Metonimiyadan foydalangan holda, hujjatli film sinaristlari tomoshabinlar bilan rezonanslashadigan kuchli tasvir va assotsiatsiyalarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, millatni ifodalash uchun bayroq yoki jamoaning kurashlarini timsol qilish uchun bir juft poyabzaldan foydalanish orqali retseptorga chuqur taʼsir koʻrsatishi mumkin. Ushbu kirish qismida biz metonimiyaning hujjatli film subjanri boʻlmish imiy-ommabop koʻrsatuv matnida metonimiyaning qoʻllanilishining turli usullarini koʻrib chiqamiz, uning hikoya qilishdagi samaradorligi va tomoshabin idrokini shakllantirish qobiliyatini oʻrganamiz. Tilshunos olimlarning tadqiqotlariga koʻra, ilmiy-ommabop matnlarda quyidagi vositalar ustunlik qiladi: epitet, metafora, personifikatsiya, metonimiya, giperbola, ishora, qiyoslash, paradoks, oksimoron. Ekspressivlikning metonimiya turi metaforadan keyin eng koʻp qoʻllaniladigan trop hisoblanadi.

Maʼnoni semantik uzatishga asoslangan usullardan biri metonimiya deb ataladi. Bunday holda, maʼno koʻchishi ikkala obyektning bir-biriga qandaydir tarzda oʻxshashligi sababli sodir boʻladi. “Badiiy tekstning lingvistik tahlili” qoʻllanmasida koʻchimlar quyidagicha tasnif qilingan[1]:

1. Soʻz maʼnosining miqdoriga asoslangan troplar: giperbola, meyozis;
2. Soʻz maʼnosining sifatli koʻchishiga asoslangan troplar: metafora, metonimiya, ironiya;

Qolgan tasviriy vositalar mazkur koʻchimlarning koʻrinishi sifatida beriladi: “simvol, jonlantirish; epitet-apastrofa-metaforaning; perifriza, sinekdoxa, allegoriya, epitet-metonimiyaning; antifriza, sarkazm-ironiyaning; litota meyozisning koʻrinishidir”. Koʻchimlar deb ataluvchi barcha vositalar asosida oʻxshatish, chogʻishtirishdan iborat mantiqiy tushuncha yotadi.

Metonimiyaning asosiy vazifasi predmetga xos xususiyatlardan birini oldinga olib chiqishdir[2]. Majoziy taqqoslash yoki metaforadan farqli oʻlaroq, bu uslub ikkita obyektga taqqoslamaydi, balki uning ahamiyatini taʼkidlash yoki tasvirlangan obyektga kinoyali soya berish uchun xususiyatlardan birini taʼkidlaydi[3].

NARRATOR

...and toss in some of the world's wildest talents.. What happens?Time Warp.

BOSHLOVCHI

Demak, dunyoning eng jasur iqtidorlari bilan tanishamiz.

Xoʻsh, nima sodir boʻladi? Buni “Vaqt mashinasi” koʻrsatadi.

(Vaqt mashinasi 1-8)

Ushbu gapda ikki uslub jamlanganligini koʻrishimiz mumkin. “wild talents” soʻz birikmasida “**wild**” epitet boʻlib, wild sifati asosan jonli subyektlarni harakterlab keladi.



Masalan: wild dog, wild animal. O'zbek tilida yovvoyi o't shaklida ham qo'llaniladi, ammo ingliz tilida wild grass shakli mavjud emas. Yuqoridagi parchada **wild** so'zi **talents** so'zini aniqlab kelib, yovvoyi hayvon, yirtqich hayvonga mos bo'lgan sifat jasur-qo'rqmaslik semantik ma'nosidan kelib chiqib, tarjimada "jasur" so'zi "wild" so'ziga muqobil qilib olingan. "Iqtidor" so'zi mavhum ot bo'lib, "world talents" so'z birikmasini metonimiya deb hisoblash mumkin. Bunda "dunyo iqtidorlari" nafaqat iste'dodlarning o'ziga, balki shu iste'dodlarga ega bo'lgan odamlarga ham nisbatan qo'llaniladi.

-Kong ...as in King Kong?- Kong so'zi "King Kong"danmi?

Ushbu tasdiq-so'roq gapda "King-Kongdanmi" so'zi atoqli otga aylanib ulgurgan bo'lib, bu yerda King-Kong filmi nazarda tutilmoqda. Undan oldin bo'layotgan dialogga e'tibor qaratsak.

-Keyingi qiladigan namoyishingni tushuntirib bera olasanmi?

-Keyingisi "Kong Mushuk sakrashi" deb ataladi.

- Kong so'zi "King Kong" danmi?

Dialog avvalida ko'rsatuv mehmoni Shoutaymdan Bosh qahramon Jeff keyingi harakat haqida s'oraganda, u sakrashni mushukning sakrashiga, ammo o'zi jussasi mushukdek kichik emas, yirik bo'lgani bois, King Kongni yiriklik ramzi sifatida "Kong mushuk sakrash" deb nomlayapti. Katta mushuk sakrashi deyilsa ham bo'lar edi, ammo muallif badiiy bo'yoqdorlikni aks ettirish maqsadida nutqni boyitgan. Bu yerda sintaktik o'zgarish bo'lib, -as -dan kelishigiga almashtirilgan va qo'shish(addition) "so'zi" nutqni tushunarliroq bo'lishiga xizmat qilgan. Agar "so'zi" ni tushurib, "Kong...King Kongdanmi?"- tarzida o'girilganda, gap nima haqida ketayotganini anglash qiyinlashar va bu albatta pragmatik xususiyatni kamaytirar edi. "Fuzuliy"ni o'qidim singari bu yerda ham "King Kong" aslida orolda yashovchi abaragenlar nomlab olgan gigant gorilla nomi.

-What happens; Time Warp. Jeff Lieberman is an MIT scientist who lives to decipher everything around us.- Bosh qahramonimiz Jef Libermen atrofimizda bo'layotgan har qanday hodisani «Vaqt mashinasi»da ilmiy yo'l bilan tasniflovchi fizik olimdir.

-Bu joyni o'zimizniki qilganimiz yaxshiku-ya ammo bizga yordam kerak.

-«Vaqt mashinasi» jamoasi shu yerda.

Birinchi misolda ikkita gap berilgan, Birinchi gap soda yoyiq gap, ikkinchi gap ergash gap, tarjimon asliyatdagi ikki gapni bir gapga aylantirgan, sintaktik transfarmatsiya yuz berib, asliyatda ham tarjimada ham metonomik o'zgarish saqlanib qolgan. Asliyat matnda "What happens; Time warp" gapida "in" predlogi tushirib qoldirilgan va bu so'zlashuv uslubiga xos xususiyat bo'lib, ilmiy-ommabop ko'rsatuvlarda so'zlashuv uslubiga xos elementlar kelishi juda ko'p uchraydi. Demak, asliyatda muallif "What happens; Time Warp" jumlasini bilan har ko'rsatuvni boshlaydi. "Vaqt mashinasida nima sodir bo'ladi?" deya so'zma-so'z tarjima berish ham mumkin edi, ammo bunda biroz neytrallik va bo'yoqdorlik kam. Ikkinchi sabab, dublyaj jarayonida ekranda bo'layotgan nutqqa aktyor ovozi ham sinxron ravishda olib borilishi kerak, demak tarjima matn asliyat matn bilan hajm jihatdan aynan bo'lishi talab etiladi. Ikkinchi gap biroz uzun bo'lgani bois tarjimon ikki gapni bitta murakkab gap shaklida olib o'tgan. Metonimik vosita "Vaqt mashinasi" da mashinada emas, balki ko'rsatuvda, ikkinchi misolimizda "Vaqt mashinasi jamoasi shu yerda" deyish orqali mashinaning emas, ko'rsatuv ishchi guruhi nazarda tutilgan. Ammo tarjimada xatolik ketgan. Xatolik shundan iboratki,



audivizual tarjimaning o'ziga xos xususiyati bu audio/video materiallar tarjimasi nafaqat qog'zodagi matn bilan balki videotasvirni ko'rib tarjima qilishni ham taqozo etadi. Bir ko'ringanda yuqoridagi birinchi misol tarjimasida muammo yo'qdek, ammo tarjimon ikki gapni qo'shib qo'pol xatolik qilgan. "What happens; Time Warp" da nutqali vergul belgisini ko'rish mumkin, fe'ldan (V) so'ng biroz pauza borligini bildiradi. Bu tinish belgisi ko'rgan tarjimon shu zahoti video tasviriga qarash kerak edi. Boshlovchi bu lahzada ko'rsatuvning kirish qismida ko'rsatuv davomida bo'ladigan eksperimentlardan parcha ko'rsatadi va asosiy qismga o'tish uchun his-hayajon, so'roq gap orqali tomoshabinni qiziqtiradi. "What happens; Time Warp" dan so'ng boshqa kadrda o'tiladi. Demak ushbu gap bilan keyingi nutq qo'shib tarjima qilinishi umuman to'g'ri emas. Bu dublyaj jarayonida muammo tug'diradi. Shu sababdan audiovisual tarjima bilan shug'ullanuvchi tarjimonidan videotasvir bilan matni hamohanglikda har soniyasini qayta ko'rish orqali o'girish maqsadga muvofiq va bu mutarjim ishini anchagina osonlashtiradi. Ikkinchi misolimizdagi MIT qisqartmasi ham tarjimada tushi qolgan, (MIT-Massachusetts Institute of Technology-Massachusetts Texnologiya Insitituti) chunki bu xalqaro qisqartma bo'lmagani bois, o'zbekchaga qisqartma shaklida o'girilganda o'zbek tomoshabiniga notanish bo'lar edi, to'liq shakli berilganda nutq uzayadi va dublyaj jarayonida muammo yuzaga keladi. Shu tufayli tarjimon uni tushirib qoldirishni afzal ko'rgan.

-Matt may be waterproof, but his cameras are not. -Met suvga dosh berishi mumkin, biroq uning kamerasi emas;

MATT KEARNEY: Well speaking of ripped off, a whole cotton candy is made of like this much sugar.- Bizni chuv tushirishar ekan-da! Butun paxtaqand mana shunday mitti shakar chimdimidan tayyorlanarkan;

JEFF LIEBERMAN

This much sugar, yeah.- Ha, bir chimdim shakardan;

We've got additional fog, flame; all the elements in play. Its gonna be pretty sick. Hopefully we get to ride it a couple times.- Bizda qo'shimcha tuman va olov bor. Xullas, barcha vositalar mavjud. Juda ajoyib o'yin bo'ladi. Umid qilamizki, buni eplay olamiz;

Yuqorida keltirilgan parchada "qo'shimcha tuman va olov bor" jumlasini metonimiya hisoblanib, gap atraksionda uchish va uchayotgan paytda purkaladigan tuman qurilmasi va olov chiqaruvchi uskuna haqida gapirilmoqda. "I'm gonna pretty sick" gapini tarjimon "ajoyib o'yin bo'ladi" tarzida o'giran. Tarjima matn kontekstiga ta'sir qilmagan bo'lsada, bu yerda pragmatik uzilish bor. Asliyatdagi "sick" -kasal, bemor leksemasi atraksionda uchish bilan bog'langan bo'lib, uchgandan keyin "kasal bo'lib qolishim tayin", so'zlashuvdagi "mazam qochib qolsa kerak" ma'nosida kelgan. Audiovizual tarjimada tarjima qoidalaridan biri tasvir bilan hamohanglikda ishlash ekanligini avval ham ta'kidlagan edik. Ushbu dialog tarjimasida videotasvir bilan ishlashda oqsoqlik borki, agar ushbu nutq soniyalarini videosida kuzatganda, ikki qahramon aynan atraksion yonida turib gaplashayotgani, barcha gap ushbu atraksionga oid suxbat ekanligini bilish o'rinli edi. Tarjimon "ride"-uchmoq so'ziga sinonimik leksika topib, uni o'yin tarzida bergan. "-we get to ride it a couple times"- gapida ham

ANTHONY KELLY

Yeah, I wanna test your reaction. This is a reaction ruler.- Ha, men sizni reaksiyangizni sinab ko'raman. Bu - reaksiya chizgichi.

HOST



To capture this two-tenths of a second, we've constructed a camera rig to record Anthony's first catch. A tennis ball being shot at 65 miles per hour. To dial in the equipment, we bring in our stand in- BOSHLOVCHI: *Soniyani o'ndan ikki qismi jarayonini suratga olish uchun biz maxsus kamera qurilmasini ishga tushirdik. Ovni tasvirga olish uchun kamera qurilmasini tuzdik. Tennis to'pi soatiga 65 mil tezlikda otilmoqda. Uskunani tekshirish uchun o'z kuchimizdan ham foydalandik.*

Ushbu gapda "ov" so'zi aslyatda mavjud emas, ammo emotsionallik, jarayonning tahlikaligi, o'q va yoy ishtirok etgan eksperiment bo'lganligi uchun, tarjimon tajribani ovga o'xshatyapti(qismdan butun).

Tahlil natijalariga ko'ra, birgina qismda ya'ni "Vaqt mashinasi" ilmiy-ommabop teleko'rsatuvi 2-mavsum 12-qismning o'zida tarjima matnida 21 o'rinda metonimiya ma'no ko'chish vositasi qo'llanilgan.

Shunday qilib, xulosa tarzida aytish mumkinki, epitet, metafora, metonimiya, badiiy ifoda vositalari ilmiy-ommabop matnlarda ustuvorlik qilishini aniqladik. Ushbu uslublar o'zbek va ingliz tillari uchun universal bo'lib, mualliflarga ilmiy materialni soddalashtirishga va yanada ifodali va qiziqarli matn yaratishga yordam beradi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ilmiy teleko'rsatuvlarda metonimiya tarjimasini murakkab g'oya va tushunchalarni kengroq auditoriyaga yetkazishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Metonimiyadan foydalangan holda, tarjimonlar tomoshabinlarga shaxsiy darajada ilmiy mavzular bilan bog'lanish imkonini beruvchi ko'proq o'xshash va foydalanish mumkin bo'lgan kontent yaratishi mumkin. Biroq, bu tarjimaning samaradorligi madaniy kontekstga va tinglovchilarning mavzu bilan tanishligiga bog'liq. Shuning uchun, asl xabarning yaxlitligini saqlash va uning tomoshabinlar bilan rezonanslashishini ta'minlash o'rtasida ehtiyotkorlik bilan muvozanatni saqlash kerak. Oxir oqibat, metonimiyaning muvaffaqiyatli tarjimasini nafaqat ilmiy dasturlashning tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi, balki tomoshabin tajribasini boyitadi, fanni yanada qiziqarli va tushunarli qiladi.

References:

1. <https://azkurs.org/matn-lingvistikasi-fani-bjicha-uv-llanma-yaratilmoda.html?page=44>
2. Shermamatova, S., Sobirova, Nilufarxon, and Nazirova, Zeboxon. "O'zbek tilida ma'no ko'chish usullari: metafora, metanomiya, sinekdoxa, vazifadoshlik" *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, vol. 3, no. 4, 2023, pp. 960-964.
3. Занина Марина Александровна. "Метафоризация в научно-популярном дискурсе" *Вестник Санкт-Петербургского университета. Язык и литература*, no. 3, 2012, pp. 72-77.